




CHILPIQ

Joylashgan o'rni: A-380 trassasi bo'yicha Nukusdan 40 km janubda
Statusi: davlat mulki, Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy meros
boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

Чилпыйк Shilpiq



INSHOOT TURI DAHMA	DIAMETRI 60–65 m
DEVOR QALINLIGI 2–5 m	BALANDLIGI 15 m gacha
QURILISHINI BOSHLANISHI MIL. AVV. I ASR OXIRI — MILODIY I ASR BOSHI	

Bu qiziq: Chilpiq Qoraqalpog'iston Respublikasining davlat gerbida tasvirlangan.



Chilpiq Daxmasi egri-bugri, tutashmagan shaklga ega. S. P. Tolstovning "Qadimiy Xorazm: tarixiy-axeologik tadqiqot tajribasi" kitobidan.

Qurilish materiali: paxsa va bog'lovchi material sifatida xom loy.

Dastlabki tadqiqotlar: 1940 yil, S. P. Tolstov ekspeditsiyasi.

Dahma yoki "sukunat minorasi"— tabiat unsurlari: yer, suv va olovni musaffo holda saqlashni nazarda tutadigan zardushtiylar marosimi bo'yicha dafn etish qurilmasidir. Buning uchun daxmaning yuqori qismida marhumlar tanasini ochiq osmon ostida bog'lab qo'yishgan va yirtqich qushlarga yem qilib qoldirishgan. Marhumning yaqin qarindoshlari etlardan tozalangan suyaklarni maxsus sopol yoki tosh idishlar — ossuariylarga solishgan va so'nggi dafn uchun ko'chirilgan yoki yerga yerga ko'mishgan.

Me'moriy o'ziga hosligi: daxma, balandligi 35 metrga yaqin bo'lgan, konus shaklidagi tabiiy tepalik ustida qurilgan. Daxmaning butun ichki qismiga qum, gil va qora qumtosh parchalari yotqizilgan. Bu tashqi devor sathi bilan barobar bo'lgan.

Dafn marosimi qatnashchilari yuqoridagi maydonchaga yetib olishlari uchun yon devorlar bilan himoyalangan, paxsadan qilingan nishab yo'lkadan foydalanishlari lozim edi. Daxmaga kirish shimoli-g'arbiy tomonda bo'lgan. Qachonlardir bu yerda, tepalikning qiya yon bag'rida, devorlar tutashmagan halqasining ikki tomonlari o'ttasida 72 pillapoyalı, uzunligi 20 metrgacha bo'lgan zinapoya qoldiqlari aniqlangan edi. Daxmaning asosidan pastga, daryo tomoniga o'tish yo'li olib borardi.

Daxma markazida boshdan-oyoq o'yilgan, geometrik belgi va yozuvlar bilan qoplangan qumtoshli qoya turtib chiqib turadi. Tasvirlar turli asrlarga tegishli va shu asosda olimlar daxmadan uzoq vaqt davomida dafn marosimlari uchun foydalilanigan deb xulosa qilishgan. Chilpiq joylashgan tepalikning yon bag'irlarida katta miqdorda ossuariylar parchalari topilgan.

Germaniya Bundestagining qaroriga binoan

Federal atrof muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadro reaktorlari xavfsizligi vazirligi

INTERNATIONAL CLIMATE INITIATIVE (IKI)

giz Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Succow Stiftung


tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda



JANPIQ-QAL'A


Joylashgan o'rni: A-380 trassasi bo'yicha Nukusdan 80 km janubda
Statusi: davlat mulki, Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy meros
boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

Джанпыйк-кала
Janpyk-kala



INSHOOT TURI QAL'A-PORT	
	MAYDONI 350x500 m
	BALANDLIGI 20 m gacha

QURILISHINI BOSHLANISHI
MIL. AVV. IV ASR



Janpiq qal'aning S. P. Tolstovning
“Qadimiy Xorazm: tarihiy-
archeologik tadqiqot tajribasi”
kitobidan keltirilgan rejasি.

Bu qiziq: Xorazm tarixining yirik
tadqiqotchisi S. P. Tolstov Janpiq
qal'ani Quyi Amudaryoning eng
chiroyli va ajoyib memoriy
yodorligi deb hisoblar edi.

Qurilish materiali: paxsa va yunilmagan xarsang tosh
bo'laklari, bog'lovchi material sifatida xom loy.

Dastlabki tadqiqotlar: 1940 yil, S. P. Tolstov
ekspeditsiyasi.


Bizning kunlarga yetib kelgan Janpiq qal'a
xarobalari IX-X asrlarga tegishli deb belgilanadi. Bu,
Xorazm davlatida shimoliy chegara sarhadlarini
himoya qilish uchun bunyod etilgan ko'plab
mustahkamlangan inshootlardan biri edi.
Tadqiqotchilar qal'aning nafaqat Sultan Uvays tog'
tizmasi va Amudaryo o'tasidagi o'tish yo'lini
himoyasida, balki gavjum daryo portini quruqlikdan
nazorat qilishda muhim strategik joylashuvini qayd
qildilar.

Me'moriy o'ziga hosligi: arxeologik qadimgi yodgorlik
hududida qo'rg'on qoldiqlari-hukmdorning
mustahkamlangan saroyi-durust saqlangan, old
tomonida ganch bezaklari bor va qadimgi ustunlarga
o'xshaydigan, turar joy va hunarmandlar kvartallari,
qabriston qazib olingan. Qal'a qalin qo'sh devorlar,
kamonchilar uchun galereyalar va himoya minoralari
bilan o'ralgan. Janpiq qal'adan shimol tomonda,
tepaliklar cho'qqisida X-XIII asrlarga tegishli ikki
xabarchi minoralarning xarobalari topilgan.

Qal'aning rejasi tog'oldi landshaftlari xarakteriga
muvaffaqiyatlidir qo'llanilgan, qal'a devorlari esa
bemalol kemalar to'xtaydigan joyni ham o'z ichiga
olishi mumkin edi, chunki o'sha paytlarda daryoning
o'zani boshqa yerdan o'tardi.

Bu qiziq: Janpiq qal'adagi qazish ishlarida o'rta asr
dunyosining Misrdan Skandinavyagacha bo'lgan turli
davlatlariga tegishli ko'plab topilmalar aniqlangan.
Bu, Janpiq qal'ani o'tmishda xalqaro savdo
markazlaridan biri bo'lganligidan dalolatdir.

Germaniya Bundestagini qaroriga binoan



tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda

www.tugai.uz





GYAUR-QAL'A


Joylashgan o'rni: A-380 trassasi bo'yicha Nukusdan 75 km janubda
Statusi: davlat mulki, Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy meros
boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida

Гяур-кала
Gyaur-kala



INSHOOT TURI QAL'A	
	MAYDONI 200x450 m
	BALANDLIGI 10 m gacha

QURILISHNI BOSHLANISHI
MIL. AVV. IV ASR



Rejada Gyaur qal'a noto'g'ri trapesiya shakliga ega. S. P. Tolstovning "Qadimiy Xorazm: tarixiy-archeologik taddiqot tajribasi" kitobidan.

Bu qiziq: paxsa – yirik shakldagi xom loy bloklari va pishitilgan loydan presslangan g'ishtlar. Bu qadimiy Xorazmning asosiy qurilish materialidir.

Qurilish materiali: paxsa va bog'lovchi material sifatida xom loy.

Dastlabki taddiqotlar: 1940 yil, S. P. Tolstov ekspeditsiyasi.

Gyaur qal'a qo'rg'oni-qadimiy Xorazmning istexkom me'morchiligining o'ziga xos namunasidir. Gyaur qal'a davlatni himoya qilish uchun qurilgan himoya zanjiri xalqlaridan biri bo'lgan va dehqonchilik vohasining shimoliy chegaralarini ko'chmanchilar bosqinlaridan ximoya qilgan.

Ushbu hududda bir necha qal'alar "Gyaur qal'a" deb nomlanadi. Chalkashlikka yo'l qo'ymaslik uchun qadimiy yodgorlik joylashgan yeriga qarab nomlanadi: Sulton Uvays tog'i Gyaur — qal'asi (tog' massivi nomi bo'yicha) yoki Amudaryo Gyaur qal'asi (daryo bo'yida joylashuviga ko'ra).

Me'moriy o'ziga hosligi: ikki qavatli minoralar bilan kuchaytirilgan, qalin ichki va tashqi devorlar, kamonchilar uchun ikki yarusli galereyalar, ikki qator o'qsimon tuynuklar, qal'aning yonlari bo'yicha "qaldirg'och dumii" shaklidagi baland minoralar. Himoya maqsadlaridan tashqari, minoralardan yoritadigan xabarchi mayoqlari sifatida foydalanilgan.

Mudofaa inshootining xarakteri va uning o'lchamlari garnizonning nisbatan kam sonli ekangini dalolatlaydi, ichki turar joy imoratlarining deyarli mavjud emasligi inshootning faqat harbiy maqsadlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bu qiziq: Qal'a burchaklaridan birida mexrob qoldiglari bilan uncha katta bo'lмаган mahobatli bino saqlanib qolgan. O'sha yerda devor yozuvlari izlari va haykallar – filning terrakot haykalchasi va erkak kishining boshi haykalchalari topilgan. Ko'rinishidan, bu bino garnizonning otash ibodatxonasi bo'lgan.

Hozirgi paytdagi holati: qal'a devorlarining bir qismini Amudaryo suvlari yuvib ketgan va ular butunlay yo'qotilan.

Germaniya Bundestagining qaroriga binoan

Federal atrof muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadro reaktorlari xavfsizligi vazirligi

INTERNATIONAL CLIMATE INITIATIVE (IKI)

giz

Deutsche Gesellschaft
für Internationale
Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Succow Stiftung

tomonidan q'llab-quvvatlanmoqda

www.tugai.uz